



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 25-oktabr

588-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 22-oktyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamlashtirish sohasida eksport faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 14-oktabrdagi PF–157-son Farmoni ijrosi haqida”gi 500-6-0-Q/24-sonli qarori haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamlashtirish sohasida eksport faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 14-oktabrdagi PF–157-son Farmoni hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 22-oktyabrdagi 500-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

### QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 22-oktyabrdagi 500-6-0-Q/24-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PF–157-son Farmoni bilan: belgilanishicha, Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki (keyingi o‘rinlarda – IT-park) rezidentlariga quyidagi qo‘shimcha faoliyat turlari bo‘yicha xizmat ko‘rsatishga ruxsat berilganligi:

axborot texnologiyalari sohasida tashkil etiladigan ta‘lim xizmati doirasida, ushbu xizmatdan yillik umumiy daromadining 40 foizidan oshmagan holda, ingliz tili bilan bir qatorda boshqa xorijiy tillarni ham o‘qitishi;

Internet jahon axborot tarmog‘i orqali axborot xizmatlarini (biznes-jarayonlari outsorsingi) eksport qilish faoliyati doirasida, ushbu xizmatdan yillik umumiy daromadining 40 foizidan oshmagan holda, biznes-jarayonlar outsorsingi yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim faoliyatini amalga oshirishi;

Internet jahon axborot tarmog‘i orqali bilim jarayonlari outsorsingi (Knowledge Process Outsourcing) xizmatlarini xorijiy davlatlarga eksport qilishi;

Raqamli texnologiyalar vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining quyidagi takliflariga rozilik berilganligi:

a) 2025-yil 1-fevraldan boshlab 2030-yil 1-yanvarga qadar eksport xizmatlari hajmi kalendar yil davomida 10 million AQSh dollaridan oshgan IT-park rezidentlariga axborot texnologiyalari sohasidagi xizmatlarini (shu jumladan, royalti to‘lanadigan) ko‘rsatgan, O‘zbekiston Respublikasi bilan ikkiyoqlama soliqqa tortishning oldini olish to‘g‘risida bitim tuzilmagan davlatlarning yuridik shaxslarini ushbu kalendar yil yakuniga qadar foyda solig‘idan ozod etish;

b) 2025-yil 1-fevraldan boshlab 2040-yil 1-yanvarga qadar jami daromadi tarkibida eksporti hajmi 50 foizdan ortiq bo‘lgan IT-park rezidentlarining ta‘sischilari (ishtirokchilari) — O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslarning dividendlar tarzidagi daromadlariga O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari singari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i hamda foyda solig‘ining 5 foiz stavkasini tatbiq etish;

c) 2028-yil 1-yanvardan boshlab 2040-yil 1-yanvarga qadar quyidagi mezonlardan biriga to‘g‘ri keladigan IT-park rezidentlari uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyundagi “Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-

tadbirlari to'g'risida"gi PF-5099-son Farmonida nazarda tutilgan soliq va bojxona imtiyozlarini uzaytirish (qo'shilgan qiymat solig'i bundan mustasno):

kalendar yil davomida jami daromadi tarkibida IT-park rezidentlari tomonidan amalga oshirishga ruxsat etilgan faoliyat turlari bo'yicha eksporti hajmi 50 foizdan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar;

kalendar yil davomida o'n sakkiz yoshdan oshgan bitiruvchilarining 50 foizdan ortik kismi IT-park rezidenti bo'lgan eksportchi korxonalariga ishga joylashgan IT- ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar;

belgilab qo'yilishicha, 2025-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvarga qadar tajriba- sinov tariqasida IT-park rezidentlariga quyidagi barcha shartlar bajarilgan hollarda korporativ bank kartalari orqali reklama xizmatlari uchun to'lovlarni amalga oshirishga ruxsat etiladi:

100 milliondan ortiq auditoriyaga ega Internet jahon axborot tarmog'idagi xorijiy axborot resurslari va tizimlari (shu jumladan, veb-saytlar, platformalararo resurslar, ijtimoiy tarmoqlar va messendjerlar) reklama xizmatlaridan foydalanilganda; kalendar yil davomida eksport tushumlarining 10 foizi doirasida, biroq 100 ming

AQSh dollaridan ko'p bo'lmagan miqdorda;

reklama xizmatlari bo'yicha to'lovlar haqidagi ma'lumotlar Tashqi savdo operatsiyalari yagona elektron axborot tizimiga kiritilgan taqdirda;

belgilanishicha, mazkur bandeda nazarda tutilgan tajriba-sinov natijalari asosida korporativ bank kartalari orqali reklama xizmatlari uchun to'lovlarning ruxsat etiladigan yuqori miqdorlari kelgusida Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida belgilab borilishi;

Raqamli texnologiyalar vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 1-apreldan boshlab oliy ta'lim muassasalarining axborot texnologiyalari sohasidagi fan nomzodi, falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga ega bo'lgan xorijlik professor-o'qituvchilari, shuningdek, IT-park rezidenti maqomini olgan yuridik shaxsning yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organi vazifasini amalga oshiruvchi jismoniy shaxs yoki kollegial ijro etuvchi organining raisi hamda ularning o'rinbosarlariga ham "IT-visa" berish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilganligi;

belgilanishicha, raqamlashtirish sohasidagi eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar faoliyatini rivojlantirishning yaxlit tizimini yaratish maqsadida 2028-yil 1-yanvarga qadar Raqamli texnologiyalar sohasida o'zini o'zi band qilgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash dasturi amalga oshirilishi;

bunda Dastur ishtirokchilariga IT-park rezidenti maqomi beriladi va ular tomonidan ko'rsatilgan tegishli xizmatlar hajmidan kelib chiqib:

zamonaviy ofislar, kovorking markazlari, sport majmualari, tibbiyot va ta'lim xizmatlaridan foydalanish xarajatlarining bir qismi qoplab beriladi yoxud ular bo'yicha hamkorlik dasturlari asosida chegirmalar taqdim etiladi;

hududlarda tashkil etilayotgan "IT-shaharcha"lar kovorking maydonlaridan bepul foydalanish imkoniyati yaratiladi hamda huquqiy maslahat xizmatlari ko'rsatiladi;

professional ko'nikmalarni rivojlantirish uchun xalqaro nufuzli platformalarda imtiyozli shartlarda ta'lim olish uchun sharoitlar yaratiladi;

tajriba almashish, ijtimoiy va biznes aloqalarni rivojlantirish maqsadida uchrashuv, forum va boshqa tadbirlar o'tkazib borilishi;

raqamli texnologiyalar sohasidagi xizmatlar eksportini oshirish va mamlakatimizga ushbu sohadagi xorijiy kompaniyalarni jalb qilish bo'yicha chora- tadbirlar rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

shunday tartib o'rnatilganki, unga muvofiq:

a) quyidagilar Investitsiyalarni jalb qilish, sanoatni rivojlantirish va savdoni tartibga solish masalalari bo'yicha Hukumat komissiyasi (J.Xodjaev) tomonidan Raqamli texnologiyalar vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi hamda Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi takliflari asosida tasdiqlanadi:

mazkur Farmonning Z-bandida ko'zda tutilgan 100 milliondan ortiq auditoriyaga ega bo'lgan Internet jahon axborot tarmog'idagi xorijiy axborot resurslari va tizimlari ro'yxati;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-fevraldagi (Mamlakatimizda raqamlashtirish sohasidagi xizmatlar eksportini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-87-son karorining 9-bandi "v" kichik bandida nazarda tutilgan prodyuserlik, reklama, reportaj va boshqa roliklarni tayyorlash hamda translyatsiya qilish xizmatlarini ko'rsatuvchi chet el kompaniyalari (shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlar), xorijiy teleradiokompaniyalar va boshqa ommaviy axborot vositalari, shuningdek, chet elda

tadbirlar (ko'rgazmalar, anjumanlar, davra suhbatlari va seminarlar) tashkil qilish va ularda ishtirok etish xizmatlarini ko'rsatuvchi xorijiy kompaniyalar ro'yxatlari;

b) IT sohasidagi korxonalar faoliyatini rivojlantirish bo'yicha dasturlar va loyihalar asosida ko'rsatilgan qo'llab-quvvatlash choralari yuzasidan ma'lumotlar (tashkilotlar kesimida) 2025-yil 1-yanvardan boshlab Raqamli texnologiyalar vazirligining rasmiy veb-saytida e'lon qilib boriladi;

v) IT-park rezidentlari uchun imtiyozlar to'g'ri qo'llanishini ta'minlash hamda ularning samaradorligini monitoring qilib borish maqsadida 2027-yil 1-iyunga qadar:

Raqamli texnologiyalar vazirligi mavjud platformalarda IT-ta'lim xizmatini ko'rsatuvchi IT-park rezidentlarida tahsil olib, o'quv kurslarini tamomlagan hamda IT-park rezidenti bo'lgan eksportchi korxonalarga ishga joylashgan bitiruvchilar reestri yuritilishini tashkil qiladi;

Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan ushbu platforma Soliq organlarining axborot tizimiga integratsiya qilinadi;

Soliq qo'mitasi Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan soliq hisobotini shakllantirishda ularning kabinetida ushbu platforma ma'lumotlarini onlayn ko'rib borish imkoniyatini yaratishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari A.Abdusalomov tegishli manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda mazkur qaror ijrosi yuzasidan kelib chiqadigan topshiriqlar ijrosini ta'minlash choralari ko'rsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya- iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**